
Qirg'izistonlik deputatlar Farg'ona va Namangan viloyatlariga tashrif buyurdi

Qirg'iziston Respublikasi Jogorku Keneshi deputatlaridan iborat delegatsiya Farg'ona va Namangan viloyatlarida bo'ldi.

Mehmonlar Marg'ilon shahridagi "Atlas bayrami" to'qimachilik festivali tadbirlarida ishtirok etib, hunarmandlar tomonidan tayyorlangan ipak mahsulotlarini ko'zdan kechirdi. Shaharda amalga oshirilayotgan bunyodkorlik va obodonlashtirish ishlari, ziyoratgohlar katta taassurot qoldirganini ta'kidladi.

Qirg'iziston delegatsiyasi vakillari Namangan shahridagi "Ideal" savdo majmuasi, kichik sanoat zonasida ham bo'lib, tadbirkorlarga yaratilgan sharoitlar, investitsion loyihalar bilan tanishdi. Mehmonlarga viloyatda amalga oshirilayotgan manzilli dasturlar haqida batafsil ma'lumot berildi.



- Bugungi kunda hududlararo munosabatlar yo'lga qo'yilayotganidan juda mamnunmiz, - deydi Qirg'iziston Respublikasi Jogorku Keneshining xalqaro aloqalar, mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi I.Pirmatov. - Farg'ona va Namangan viloyatlarida mehmondorchilik an'analariga sodiq holda bayramona kutib olishganidan dillarimiz shodlikka to'ldi. Har bir muloqotimiz rasmiyatchilikdan xoli, samimiy o'tdi. Ayniqsa, investitsiyalarni jalb etish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash borasidagi ishlar bizda katta qiziqish uyg'otdi.

Muloqotlar so'ngida ijtimoiy-madaniy tadbirlarni o'tkazish bo'yicha ikki tomonlama hamkorlik masalalari muhokama qilindi.

